



OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI

FOREIGN EXPERIENCES OF FINANCING HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**¹Rahmatullayev Jamshid
Murodillayevich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotation

Uzb. - Maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya tajribasi asosida oliy ta'lismuassasalarini moliyalashtirishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. Davlat moliyalashtiruvi, xususiy sektor ishtiroki, ijtimoiy sheriklik va innovatsion vositalar (grantlar, ta'lim kreditlari, endovment fondlari, veksel va boshqalar)ning qo'llanilishi o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholanib, moliyaviy barqarorlik va ta'lismifatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article analyzes international experiences in financing higher education institutions, focusing on developed and developing countries such as the USA, UK, Germany, South Korea, Singapore, and Finland. It explores mechanisms including public funding, private sector participation, public-private partnerships, and innovative financial tools (grants, student loans, endowment funds, bonds, and performance-based funding). The study also examines the potential adaptation of these practices to the context of Uzbekistan and proposes practical recommendations aimed at improving financial sustainability and the quality of higher education.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *oliy ta'lism, moliyalashtirish modellari, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim kreditlari, endovment fondi, xorij tajribasi, ta'lim islohoti.*
❖ *higher education, financing models, public-private partnerships, educational loans, endowment fund, overseas experience, education reform.*

Kirish.

Jahon amaliyoti shuni anglatadiki, har bir davlatning zamonaviy sivilizatsiya va ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi, asosan, fan-texnika taraqqiyoti, ta'lismifati, aholining jismoniy va ma'nnaviy salomatlik darajasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik boshqaruv samaradorligi kabi muhim omillar bilan belgilanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, global darajada davlat budjeti xarajatlarining o'rtacha 13 foizi ta'lismifatiga yo'naltirilmoqda va hukumatlar bu

mablag'larni oqilona ishlatishdan manfaatdor hisoblanadi. Shu bilan birga, ilm-fanni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan mablag'lar hajmi dunyo miqyosida 19 foizga oshgan. Biroq, turli mamlakatlarda ushbu mablag'larni taqsimlashda sezilarli nomutanosiblik kuzatiladi: jahon bo'yicha ilm-fanga sarflanayotgan mablag'larning katta qismi AQSh va Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. Qolaversa, 80 foiz davlatlarda ilmiy tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar ularning YAIMining 1 foizidan ham kam. Masalan,

so'nggi to'rt yilda O'rta Osiyo davlatlarida bu ko'rsatkich 0,17 foizdan 0,12 foizgacha pasaygan [1].

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida oliy ta'limni samarali moliyalashtirish masalasi xalqaro darajada dolzarblik kasb etmoqda. Shu paytgacha xalqaro ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'limni moliyalashtirishning turli mexanizmlari o'rganilgan bo'lib, ular qatorida ta'lim xarajatlarini to'liq davlat hisobidan qoplash, iqtidorli talabalarni saralashda shaffof tanlov tizimini joriy etish, davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarini uchun farqli yondashuvlar, venchur moliyalashtirish usullaridan foydalanish, ta'lim narxini universitetlarning o'zi tomonidan belgilash, ularning tadbirkorlik faoliyati orqali daromadlarni oshirish va ta'lim sifatini baholash indikatorlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar mayjud.

Shu bilan birga, globallashuv va innovatsion taraqqiyot jarayonida oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, ularning innovatsion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullarini takomillashtirish, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashning baholash usullari yetaricha ilmiy tadqiq qilinmagan. Shu boisdan, bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish muhim masala bo'lib, bu sohada chuqur va keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish, ularning investitsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganishga qiziqish so'nggi vaqtarda iqtisodchi olimlar tomonidan ortib bormoqda.

Xorijiy olimlar Frölich va Strømlar Norvegiyada oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tajribasini o'rgangan. ularning fikricha, davlat tomonidan

ajratiladigan mablag'lar aniq natijalarga bog'langanida universitetlar faoliyatini yaxshilashga harakat qiladi. Norvegiyada qo'llanilgan natijaga asoslangan moliyalashtirish tizimi oliy ta'lim sifati va ilmiy faoliyati oshirgan. Mablag'lar raqobat asosida taqsimlanishi innovatsion ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Olimlar ushbu modelni barqaror rivojlanish va shaffof boshqaruv uchun muhim deb hisoblaydi [2]. Ularning izlanishlari Yevropa davlatlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Iqtisodchi K. Sahpzov va G. Goksular xalqaro miyosda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimlarini tahlil qilgan. Ular AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada kabi davlatlarda xususiy sektor ishtirokining yuqoriligiga e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, davlat mablag'larining qisqarishi universitetlarni muqobil manbalarni izlashga majbur qilgan. Moliyalashtirishning diversifikasiyalashgan modeli universitetlarni moliyaviy mustaqillikka olib kelgan. Shuningdek, talabalar uchun teng imkoniyat yaratishda davlat kafolatlari muhim o'rinnutishini, davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish zarurligini [3] ta'kidlaydi.

Iqtisodchi olimlar L. Cong, S. Howell va X.Zhanglar Xitoyda oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot institutlarini moliyalashtirish usullarini tahlil qilgan. Ularning fikricha, davlat bilan bir qatorda xususiy sarmoyalar va innovatsion moliyaviy vositalar muhim rol o'ynaydi. Xususan, universitetlar startaplar, grantlar va sanoat bilan hamkorlik orqali mablag' topmoqda. Bu moliyaviy mustaqillik ularning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Olimlar davlat siyosatida xususiy sektor bilan integratsiyani kuchaytirishni taklif qiladi [4]. Ular ta'limda natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish modelini samarali deb hisoblaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Sherov O'zbekistonda oliy ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirish tizimini tahlil qilib, bu jarayonning innovatsion iqtisodiyotga ta'sirini

ochib bergen. Uning fikricha, mavjud budjet mablag'larini oliy ta'limga muassasalarini to'laqonli qo'llab-quvvatlashga yetarli emasligini, qolaversa moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish zarur ekanligini, davlat, talaba, jamiyat o'rtafiga mas'uliyatni qayta taqsimlashni taklif etadi. Shuningdek, grantlar, xalqaro loyihalar va sarmoyalarni jalg qilish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar bergen [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyot makoniga kirishi ta'limga sohasini boshqarish va moliyalashtirish siyosatidagi xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish zarurligini keltirib chiqaradi. Bu, avvalo, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar deyarli doimo bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida iqtisodiyotni faoliyatini tashkil etib kelganligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, ushbu sanoatlashtirilgan mamlakatlarda ta'limga sohasidagi islohotlarning to'plangan tahlili ko'plab xatolarga yo'l qo'ymaslik va ijobjiy tajribani qabul qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida taxminan 61,5 million talaba tahsil olayotgan bo'lsa, ulardan 38 million nafari barqaror rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyodagi yettita yetakchi kapitalistik davlatlar - AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada ulushiga jahondagi barcha talabalarining 40 foizi yoki taraqqiy etgan davlatlarda tahsil olayotgan talabalarining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Turli guruh mamlakatlarida yoki alohida davlatlarda ta'limga rivoji ularning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy, etnik

va boshqa omillarga asoslangan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, barcha davlatlarga xos umumiylig shundaki, ta'limga darajasini oshirish orqali mehnat resurslarining sifatini yaxshilash va iqtisodiyotda rivojlanishga erishish mumkin.

Ma'lumki, taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'limga kiritilgan investitsiya eng daromadli kapital qo'yilma deb hisoblanadi. Bu borada Garvard universiteti prezidenti Derek Bokning mashhur so'zları dolzarbligicha qolmoqda: "Agar siz ta'limga qimmat deb o'ylasangiz, jaholatning narxi qancha ekanini bilishga harakat qiling".

Urushdan keyingi davrda oliy ta'limga iqtisodiy funksiyasi, ya'ni turli darajadagi mutaxassislarini tayyorlash va ta'limga ehtiyojlarini qondirish borasidagi roli oshib bordi. Bu jarayonlar bevosita oliy ta'limga tizimidagi o'zgarishlarda o'z aksini topdi. Ko'plab mamlakatlarning oliy ta'limga tizimlarida tashkiliy tuzilma, boshqaruv, rejalashtirish, o'quv mazmuni va moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Rivojlangan mamlakatlar oliy ta'limga tizimlarining umumiyligiga nazar tashlar ekanmiz, ularning o'rtafiga farqlar mavjud bo'lsa-da, universitetlarga xos bo'lgan umumiyligiga xususiyatlar borligini ko'rish mumkin. Deyarli barcha davlatlarning ta'limga tizimlarida (AQSh va Yaponiya mustasno) davlat ta'limga muassasalari ustunlik qiladi. Universitetlarning aksariyati davlat tasarrufida bo'lib, asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Hatto AQSh va Yaponiyada ham oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetarli darajada ekanini ko'rish mumkin.

Shuningdek, ko'plab hollarda oliy ta'limga moliyalashtirish davlat va xususiy sektorning kombinatsiyalashgan manbalaridan - davlat subsidiyalari, xususiy xayriyalar, to'lov-kontrakt mablag'lari, ta'limga tadqiqot xizmatlaridan olingan daromadlar orqali amalga oshiriladi. Biroq, hatto xususiy

universitet va maktablarni moliyalashtirishda ham davlat muhim rol o'ynaydi.

Germaniyada oliy ta'lif muassasalari (OTMLar) federativ yerlar tasarrufida bo'lib, ularning moliyaviy yuklamalari ham federativ yerlar tomonidan belgilanadi. Masalan, Quyi Saksoniya yeri bir talabaga yiliga o'rtacha 9200 yevro ajratsa, Hessen yoki Brandenburg yerlarida bu ko'rsatkich 5500 yevro atrofida. Umuman olganda, Germaniya bo'yicha bir talabaga yiliga o'rtacha 7500 yevro mablag' ajratiladi.

Moliyalashtirish manbalari boshqa mamlakatlardagi kabi asosiy va qo'shimcha manbalarga bo'linadi. Asosiy manbalar moliyalashtirishning taxminan 60 foizini tashkil etadi, ulardan 90 foizi davlat va 10 foizi xususiy manbalar hissasiga to'g'ri keladi. Davlat manbalarining 80 foizi federativ yerlar, 10 foizi esa federal hukumat tomonidan taqdim etiladi.

Qo'shimcha manbalar esa umumiy moliyalashtirishning 40 foizini tashkil qiladi. Ular turli grantlar, xususiy fondlar, korxona va kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar mablag'laridan iborat bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha manbalar tarkibida kontrakt to'lovlari mavjud bo'lmasa-da, ayrim federativ yerlarning oliy ta'lif to'g'risidagi qonunlarida agar talaba belgilangan 12-semestr mobaynida dasturda belgilangan bilimlarni o'zlashtira

olmasa, u holda qo'shimcha o'qish uchun kontrakt asosida to'lov qiladi.

Germaniyada asosiy va qo'shimcha moliyalashtirish manbalari doirasida bir qator mezonlar va ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri OTMLarni moliyalashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Muhim ko'rsatkichlarga bitiruvchilar soni, ta'lifning davomiylik muddati, xususiy manbalardan jalb qilingan qo'shimcha mablag'lar, himoya qilingan dissertatsiyalar soni, bakalavriatdagi talabalar soni, ilmiy xodimlar stavkasi miqdori va boshqalarni kiritish mumkin.

Bu ro'yxatdan ko'rinish turibdiki, Germaniyada turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, eng muhim ko'rsatkichlar sifatida bitiruvchi talabalar soni va ilmiy salohiyat e'tiborga olinadi. Germaniyada har qanday sohani moliyalashtirishda, eng avvalo, pirovard natija asosiy mezon sifatida hisoblanadi.

Shuningdek, Germaniyada OTMLarni moliyalashtirishda nafaqat hozirgi ta'lif natijalariga, balki kelgusidagi ilmiy faoliyat - ya'ni bo'ladigan natjalarga e'tibor qaratilishi bilan e'tiborga loyiqidir. Bu mamlakatda OTMLarni moliyalashtirish ularning maqomi va nufuziga qarab amalga oshiriladi. 2005-yildan boshlab "nufuzli universitetlar" tashabbusi joriy etilgan bo'lib, u orqali saralangan OTMLarni moliyalashtirish hajmi yil sayin oshib bormoqda.

1-jadval

Oliy ta'lifni moliyalashtirishning xorijiy tajribasi: taqqoslama jadval¹

| Mamlakat | Moliyalashtirish modeli | Asosiy manbalar | Xususiyatlari |
|-----------------|---|---|--|
| AQSh | Gibrild (davlat + xususiy + grantlar) | Davlat subsidiyalari, talabalar to'lovlari, endowmentlar, ta'lif kreditlari | Endowment fondlari katta ulushni tashkil etadi; ta'lif kreditlari keng tarqalgan |
| Buyuk Britaniya | Davlat mablag'lari + talabalar kreditlari | Student Loan Company orqali kreditlar, hukumat grantlari | "To'lovlar orqali qaytarish" modeli; universitetlar o'zi mablag' jalb qiladi |
| Germaniya | Davlat tomonidan to'liq moliyalashtirish | Federal va mahalliy budgetlar | Talabalar uchun ta'lif bepul; ta'lif sifati yuqori |

¹ Izlanishlar natijasida muallif tomonidan tuzildi.

| | | | |
|-----------------------|---|---|---|
| Janubiy Koreya | <i>Davlat-xususiy sheriklik</i> | <i>Davlat mablag'lar, xususiy investitsiyalar, ta'lif to'lovlar</i> | <i>Talabalar uchun ta'lif kreditlari va subsidiyalar mavjud</i> |
| Singapur | <i>Innovatsion grant tizimi</i> | <i>Davlat grantlari, xususiy to'lovlar</i> | <i>"Egalik hissi" tamoyili: talabalar qisman to'laydi; muvozanatli moliyalashtirish</i> |
| Finlyandiya | <i>Davlat tomonidan to'liq moliyalashtirish</i> | <i>Davlat budgeti, Yevropa grantlari</i> | <i>Bepul ta'lif; xalqaro talabalar uchun grantlar va stipendiyalar</i> |

Tadqiqotchilarning fikricha, OTMlarni nufuziya qarab yetakchi OTMlarga ajratish fan, innovatsiya, raqobatbardoshlik qobiliyati va ta'lif sifati oshishida yetarlicha samarali deb hisoblanadi. Biroq, bu ro'yxatga kirmagan OTMlar ularni moliyalashtirishda qiyin ahvolga tushib qolishlari mumkin. Lekin, shu bilan birgalikda Germaniyada qo'shimcha manbalardan mablag' jalb etish barqaror amaliyotga aylangani sababli, nufuzli universitetlar ro'yxatiga kirmagan OTMlar ham ta'lif makonida yashab qolishlari osonroqligini ta'kidlash mumkin.


Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarimiz Germaniya davlatidagi OTMlarni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarimizni shakllantirishga asos bo'ldi:

❖ Germaniyada 2000-yildan boshlab OTMlarni moliyalashtirish, ayniqla nufuzli OTMlarni mablag' bilan ta'minlash faqat o'sish tendensiyasiga ega;

❖ OTMlarni moliyalashtirish doirasida nemislar amaliyoti OTMlar o'rtaida mablag'larni taqsimlashda eng avvalo istiqboldagi natijalarga qarab amalga oshirilishi bilan o'ziga xosdir;

❖ Germaniya tizimida qo'shimcha moliyalashtirish manbalarining miqdori, eng avvalo, OTM va federal yerlar, korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarning soniga bog'liq;

❖ Germaniyada moliyalashtirish doirasida yetakchi OTMlar o'rtaida nufuzli OTMlar afzalliklarga ega.



1-rasm. OTMlarni moliyalashtirish manbaları²

AQShda nafaqat oliy ta'lif institutlarini, balki bevosita talabalarni va ularning ottonalarini moliyalashtirishning murakkab va differensiyalashgan tizimi yaratilgan. Amerikada federallik tizimi kuchli bo'lganligi sababli bu yo'nalishda vakolatlar nafaqat federal hukumatga, balki shtatlarga ham tegishlidir. AQShda "Oliy ta'lif to'g'risida"gi

qonun 1965 yilda qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning katta qismi aynan moliyaviy jihatlarga bag'ishlangan.

Ushbu mamlakatda ham moliyalashtirish hajmi doimiy ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, oliy ta'lifga ajratiladigan xarajatlar jami ta'lif xarajatlarining 40 foizini tashkil etadi. AQShda oliy ta'lifni davlat tomonidan

² Izlanishlar natijasida muallif ishlanmasi.

moliyalashtirish salmog'i rivojlangan mamlakatlar ichida eng past ko'rsatkichga ega. Bunday sharoitda moliyalashtirish tarkibi turli institutlar uchun turlicha shakllangan.

Federal hukumat, shtatlar hokimiyati va mahalliy hokimiyatlar o'rtaida oliy ta'limni muvofiqlashtirish funksiyalari taqsimlangan bo'lib, federal hukumatning vakolatlari asosan shtatlarning boshqaruv funksiyalaridan olingan. Ular OTMlar faoliyatiga bevosita ta'sir etishning maxsus usullarini ishlab chiqqan. Shunday usullardan biri – "takroriy moliyalashtirish" hisoblanadi.

"Takroriy moliyalashtirish" deganda, federal yordam berilganda, shtatlar tomonidan ham shuncha miqdorda mablag' ajratilishi majburiyati, shuningdek, ushbu mablag'lardan foydalanish ustidan federal hukumat tomonidan markazlashtirilgan nazorat o'rnatilishi tushuniladi.

Natijada, shtatlarning harakatlari ko'p jihatdan federal hukumat siyosatiga bog'liq bo'ladi. Federal dasturlar qabul qilinganda dastlab barcha xarajatlarni federal hukumat o'z zimmasiga oladi va asta-sekin bu xarajatlar shtatlar budgetiga o'tkaziladi.

AQShda quyidagi moliyaviy yordam turlari mavjud:

- ❖ Stipendiyalar – odatda akademik yutuqlar uchun ajratiladi, talabarning moliyaviy holati inobatga olinmaydi, qaytarilmaydi;

- ❖ Grantlar (subsidiya yoki dotatsiyalar) – qaytarilmaydigan mablag'lar bo'lib, asosan kontrakt to'lovini amalga oshirolmaydigan talabalar uchun mo'ljallangan;

- ❖ Qarzlar (kreditlar) – moliyaviy ehtiyoj yuzaga kelgan talabalar uchun ajratiladi, uzoq muddatli va imtiyozli shartlarda taqdim etiladi. Albatta, qarzlar qaytarilishi shart;

- ❖ Talabalar uchun ish o'rnlari – o'qish davomida ishlash orqali daromad topish imkoniyati;

- ❖ Soliq yengilliklari – ta'lim xarajatlariga nisbatan soliqlardan chegirma olish mexanizmlari [6].

Stipendiya va grantlar shaklidagi moliyaviy yordamlar notijorat xususiy institutlar uchun nisbatan ko'proq, ommaviy institutlarda biroz kamroq va xususiy tijorat OTMlar uchun eng kam miqdorda taqdim etiladi. Masalan, 2015/2016-o'quv yili davomida notijorat xususiy institutlarda har bir talaba uchun o'rtacha 18 180 AQSh dollar, ommaviy institutlarda o'rtacha 6 660 AQSh dollar, xususiy tijorat OTMlarda esa o'rtacha 5 170 AQSh dollar miqdorida yordam ajratilgan.

Shunday qilib, Qo'shma Shtatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishning rivojlangan va tabaqalashtirilgan tizimi shakllangan. Ushbu tizimga quyidagilar kiradi: davlat budgetidan moliyalashtirish (uchta darajada – federal, shtat va mahalliy boshqaruv), jismoniy shaxslar (korporatsiyalar, xayriya tashkilotlari), oliy o'quv yurtlarining o'z mablag'lari (ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan, mulkdan foydalanishdan, tibbiy faoliyatdan, yordamchi xizmatlardan tushgan daromadlar) hisobidan moliyaviy ta'minot.

Oliy ta'limni federal darajada moliyalashtirish hajmi oshganiga qaramay, shtat va shahar budgetlariga katta yuk tushishda davom etmoqda. O'qish to'lovlaring oshishi, talabalar uchun umumiy ta'lim va turar joy xarajatlari, talabalar kreditlarining soni va hajmining ortib borishi, talabalar qarzları va ularning miqdorining o'sishi, shuningdek, ko'pchilik universitetlarda o'qish xarajatlarining pasayishi – zamonaviy AQShda oliy ta'limni moliyalashtirish borasidagi salbiy va xavotirli holatni namoyon etmoqda.

Xulosa va takliflar.

So'nggi besh yil mobaynida oliy ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi va bu o'zgarishlar bevosita soha moliyalashtirish tizimiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, qator muhim yangiliklar joriy etildi. Jumladan, to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish uchun belgilanadigan mablag'lar respublikadagi mehnatga haq to'lashning eng

kam miqdoriga bog'landi va belgilangan karra miqdorida aniqlanadigan tizim joriy qilindi. Shu bilan birga, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilganida, to'lov-kontrakt summasi mos ravishda navbatdagi semestr boshidan oshirib boriladi.

AQSh, Singapur va Xitoy kabi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliv ta'lif muassasalarini rivojlantirish va samarali moliyalashtirishda diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish tizimi, innovatsiyalarga yo'naltirilgan yondashuv, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va sifat baholash mezonlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu mamlakatlarda oliv ta'lifni faqat davlat budgeti hisobidan emas, balki talabalar to'lovlar, endoument fondlari, xususiy sektor investitsiyalari, xalqaro grantlar va kreditlar orqali moliyalashtirish amaliyoti keng qo'llaniladi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi OTMlarni moliyalashtirish va yanada rivojlantirish yuzasidan bir qancha ilmiy va amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. (2022). *Financing Higher Education in Developing Countries: Emerging Trends and Policy Options*. Washington, DC: World Bank Publications. URL: <https://documents.worldbank.org/financing-higher-education>
2. Frølich N., Strøm B. *Higher Education Funding and Incentives: evidence from the Norwegian funding reform* //European Journal of Education. - 2008. - T. 43. - №. 4. - C. 563-576.
3. Goksu G. G., Sahpaz K. I. *Comparison of tax morale of Turkish and Spanish higher education students: the samples of Sakarya University and the University of Zaragoza* //Procedia-Social and Behavioral Sciences. - 2015. - T. 186. - C. 222-230.
4. Cong L. W. et al. *Financing entrepreneurship and innovation in China* //Foundations and Trends® in Entrepreneurship. - 2020. - T. 16. - №. 1. - C. 1-64.
5. Sherov A. B. *State financing of higher education institutions in the context of the introduction of innovative economy* //Central asian journal of mathematical theory and computer sciences. - 2023. - T. 4. - №. 11. - C. 132-136.
6. Ta'lif bo'yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlari (UNESCO, OECD, World Bank).

1. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish - O'zbekiston oliv ta'lif tizimida davlat budgeti bilan birga talabalar to'lovlar, xususiy sektor investitsiyalari, xalqaro grantlar va xayriya mablag'larini kengroq jalg qilish zarur. Bu OTMlар moliyaviy barqarorligini oshiradi.

2. Davlat-xususiy sheriklik asosida loyiha va grantlarni kengaytirish - Singapur tajribasi asosida OTMlар o'z tadqiqot va innovatsion faoliyati uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida tanlov asosida mablag' jalg qilishi lozim.

3. OTMlар reytingi asosida natijaviy moliyalashtirish tizimini joriy etish - AQSh tajribasidan kelib chiqib, universitetlar reytingi, ilmiy salohiyati va innovatsion loyihalari asosida mablag' ajratish tizimi shakllantirilishi kerak.

4. Tijoratlashtirish va intellektual mulkdan foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish - Xitoydagi kabi, OTMlarga o'z innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish, patentlash, startaplarni yaratish orqali daromad manbalarini shakllantirish huquqlari berilishi zarur.